



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




**XORAZM VILOYATIDA
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI
2021- yil yakuniga**

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilgani bilan o'lchanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Masalan, ingliz san'atshunos olimi F. R. Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lмаган", deb yozadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi, desak yanglishmagan bo'lамиз.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san'at muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'liq tatbiq etish, xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda chinakam iste'dod egalari ishtirokini ta'minlash, xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan. Qaror asosida 2019-2020- yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019 – 2022- yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mirlanadigan va to'liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxati ham tasdiqlandi.

Madaniy faoliyatda san'at sohasining ko'plab yo'nalishlarini to'liq qamrash, ularning faoliyatini to'g'ri baholash maqsadida soha mutaxassislarining maslahat organi bo'lgan tarmoq badiiy kengashlarini tuzishga muhtojlik mavjud. Endilikda tasarrufida madaniyat tashkilotlari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, madaniyat tashkilotlari tomonidan teatr, musiqa va konsert faoliyati, sirk san'ati va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn bo'yicha tarmoq badiiy kengashlarini tashkil etish huquqi qonun bilan mustahkamlandi.



XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Teatrlar soni, birlikda



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan teatrlar soni (2021- yil, birlik)




2021- yil viloyatimizda 2 ta teatr mavjud bo'lib, Urganch va Xiva shaharlarida 1 tani tashkil etadi.

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Spektakllar (tomoshalar) soni, birlikda




2021-yil hududlar bo'yicha spektakllar tarmog'i va faoliyati soni, birlikda




2021- yil viloyatimizda namoyish etilgan spektakllar soni **460** tani tashkil etib, eng yuqori ulush Xiva shahrida (**251** ta) qayd etilgan bo'lsa, kam ko'rsatkich Urganch shahri (**209** ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, ming kishi



XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


2021-yil hududlar kesimida tomoshabinlar soni, birlikda




Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan teatrлarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik

	Teatrлar soni	shundan:	
		musiqali	qo'g'irchoq
Xorazm viloyati	2	1	1
Urganch sh.	1	1	-
Xiva sh.	1	-	1


Xorazm viloyatida teatrлarda faoliyat yuritayotgan xodimlar soni, kishi



**Hududlar kesimida teatrlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar soni,
(2021- yil, kishi)**



**Hududlar kesimida teatrlarda bepulnamoyish etilgan spektakllar soni,
(2021-yil, birlik)**



Yil davomida viloyatning barcha teatrlarida jami **460** ta spektakl namoyish etilgan bo'lib, shundan **22** tasi bepul hisoblanadi.

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Muzeylar soni



2021-yil hududlar kesimida muzeylar soni, birlikda



2022- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Xorazm viloyatida **3** ta muzey mavjud bo'lib, Urganch shahrida **2** ta va Xiva shahrida **1** tani tashkil etadi.


2021- yil hududlar bo'yicha muzeylarning ilmiy-ma'rifiy ko'rgazma ishlari

Hududlar kesimida muzeylarga yakka tartibda tashriflar soni, ming kishi



Hududlarda muzeylarga yakka tartibdagi tashriflar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahrida - **211,9** ming kishi, eng past ko'rsatkich Urganch shahrida - **24,1** ming kishini tashkil etdi..


Ekskursiya tarzida qatnaganlar soni, ming kishi



Ekskursiya tarzidagi muzeylarga tashriflar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahrida **148,5** ming nafarni tashkil etdi . Eng past ko'rsatkich Urganch shahriga **9,4** ming kishiga to'g'ri keladi.

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Muzeylardagi eksponatlar soni, ming birlik




2021- yilda hududlar bo'yicha muzeylar fondlari

	Yil oxiriga asosiy fond eksponatlari soni
Xorazm viloyati	40 319
Urganch sh.	657
Xiva sh.	39 662



XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

2021- yilda eksponatlarning turi bo'yicha muzeylar fondi



Muzeylardagi eksponatlar soni **40 319** donani tashkil etib, shundan **41,1 %** numizmatika buyumlari, boshqalar - **20,1%**, hujjatlar – **13,6%**, sur'atlar – **8,2 %**, amaliy san'at buyumlari -**6,7%**, maishiy va etnografiya buyumlari -**4,7%**, arxeologiya buyumlari – **3,6 %**, rassomlik - **1,3 %**, grafika - **0,6%**, haykaltaroshlik - **0,1%**.


XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Konsert tashkilotlari soni, birlikda	1	1	1
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, ming kishi	66,1	13,8	35,6
Konsertlar soni, birlikda	134	67	158

Viloyatimizda 2021- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 1 ta. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2019- yilda 134 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilga kelib konsertlar soni 17,9 % (24 ta) ga oshgan. Shuningdek, tinglovchilar soni 2021- yilda jami 35,6 ming nafarga teng bo'lgan.


Xorazm viloyatida konsert tashkilotlarining doimiy jamoalar soni, kishi



Madaniyat va dam olish istirohat bog'lari

2021- yilda viloyatimizda jami 13 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, eng ko'p madaniyat va istirohat bog'i Urganch shahrida (3 ta) joylashgan. Bog'ot tumanida -2 ta, qolgan hududlarda esa 1 tadan faoliyat ko'rsatgan. 2021- yilda istirohat bog'laridagi jami attraksionlar soni 32 tani tashkil etgan. Shundan, 28,1 % i Bog'ot tumani (9 ta attraksion), 25,0 % i Shovot tumani (8 ta), 21,9 % i Urganch shahri (7 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda


Madaniyat va istirohat bog'lari soni hududlar kesimida, birlikda




Madaniyat va istirohat bog'lariga jami tashrif buyurganlar soni 13,5 ming kishini tashkil etib, shundan tashrif buyuruvchilarning 57,8 %i bolalar (7,8 ming nafar)dan iborat. Qo'shko'pir tumani (6,4 ming nafar), Bog'ot tumani (3,2 ming nafar) tashrif buyuruvchilar bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan.

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

2021- yilda madaniyat va istirohat bog'lariiga tashriflar soni, ming kishi



Xorazm viloyatida madaniyat va istirohat bog'larida faoliyat yuritayotgan xodimlar soni, kishi



Ayollar – 87 nafar

Erkaklar – 103 nafar

2021- yilda madaniyat va istirohat bog'lariagi umumiy ishchi xodimlar soni 190 kishini tashkil etgan, ulardan 87 tasi yoki 45,8 % i ayollardan iborat.

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kutubxonalar soni, birlikda



**) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qarori.


Xorazm viloyatida 2022- yil 1-yanvar holatiga 20 ta kutubxona faoliyat yuritadi. Shundan, axborot kutubxona markazlari 12 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari, viloyat Bolalar kutubxonasi, Xorazm viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti axborot-resurs markazi, Xorazm viloyati ilmiy-tibbiyot kutubxonasi, Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi, oliy ta'lim muassasalarida 3 ta axborot-resurs markazlari va O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Xorazm akademik litseyi axborot-resurs faoliyat yuritib kelmoqda.

Kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2017-2021 yillarda)


	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Kutubxona fondi, ming nusxa	4884,0	4864,3	2890,2	2498,3	2892,3
Foydalanuvchilar soni, ming kishi	395,3	391,0	192,0	220,8	270,5
Berilgan kitoblar soni, ming nusxa	6763,3	6100,0	2189,1	1966,1	2654,3

XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

2021- yilda kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni, ming kishi



2021- yilda tillar bo'yicha kutubxona muassasalari kitob fondi, ming nusxa



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat- inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat [musiqa](#), [adabiyot](#), [badiiy tasvir](#), [me'morchilik](#), [teatr](#), [kinematografiya](#), turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros - bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, ob'ektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

nomoddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nkmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar".

Ansambllar – tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

Diqqatga sazovor joylar – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi



Manzil: Urganch sh.,
Al - Xorazmiy ko'chasi, 93-uy



Tel.: +99862 224-65-21



e-mail: xorazmstat@umail.uz



www.xorazmstat.uz



facebook.com/xorazmstataxborot